

## LIBERAL TIL SIYOSATI

Yorqinjon ODILOV,

*O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti filologiya fanlari doktori, professor*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488555>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola liberal til siyosati tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda bunday siyosatning tabiatini aniq misollar asosida tushuntirgan, til liberalizmini yuzaga keltiradigan sabablarning tahlilini bergan.

*Kalit so‘zlar:* til siyosati, liberal til siyosati, til vaziyati, til hayotiga aralashuv, til me‘yorlarini yangilash, xorijiy so‘z va atamalar.

Til siyosatidan kutilgan natijaga erishish davlatning tilga munosabati, ko‘rilayotgan choralarning lingvistik to‘g‘riligi hamda mantiqiy izchilligiga bog‘liq. Masalan, sobiq ittifoqda katta-kichik xalqlarning adabiy tilini shakllantirish, yozuv tizimini yaratish siyosati mutlaqo to‘g‘ri hisoblangan. Bunday siyosat o‘sha xalqlarning til madaniyatini rivojlantirishga hissa qo‘shgani ma‘lum, chunki avval og‘zaki amal qilgan tillarning yozma adabiy me‘yorlarining ishlab chiqilishini ma‘qullamaslik mumkin emas. Biroq partiyaning zo‘ri bilan yozma til me‘yorlari shakllantirilgan ayrim ellar keyinchalik adabiy tili va milliy yozuv standartlaridan foydalanmadi, ularning ba‘zilari ona tillaridan ixtiyoriy voz kechdi va ijtimoiy-demografik ustun qo‘shni xalqlarning tillarida so‘zlashishni, yozishni odat qildi. Vaqtlar o‘tib, mutaxassislar bu siyosat ittifoqning ayrim hududlarida kutilgan natija bermagani, chunki muayyan tilning qo‘llanishi uchun zarur ijtimoiy-madaniy sharoit yetarlicha hisobga olinmagani, turli til vaziyatlariga bir xil yondashilaverganini – alohida dasturlar ishlab chiqib, tatbiq etilmagini to‘g‘ri qayd etdilar [Никольский, 1968: 114-115]. Hozirgi kunga kelib, avvalo, til vaziyati, tillarning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olib, til siyosati o‘tkazish lozimligi anglandi. Shu ma‘noda liberal til siyosati til vaziyatini hisobga olgan, ishlamagan choralarni almashtirish yoki bekor qilishga izn beradigan, qisqasi, pragmatizmga asoslangan chora-tadbirlardir.

Mohiyatan, til konservatizmiga zid pragmatik til siyosatining asosida “liberalizm” tushunchasi turadi. Mazkur tushuncha qadim lotinchada “erkinlik” ma‘nosini anglatgan *liberalis* so‘zidan kelib chiqqan. Falsafiy atama sifatida “ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishi, jamiyatning tadrijiy rivojlanish yo‘lini e‘tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy oqim”ni bildiradi. Uni murosa falsafasi ham deyiladi [Назаров, 2004: 219]. Til siyosati tajribasida *liberalizm* g‘oyasi “erkinlik ustuvor bo‘lgan”, “evolyutsion o‘zgarish va rivojlanish yo‘lini e‘tirof etadigan”, “yangi qarashlar bilan murosa qila oladigan” faoliyat deb tushuniladi. Liberal til siyosati turli mamlakatlarda turlicha kechgan va hamma vaqt siyosiy, ijtimoiy hamda lisoniy vaziyatga bog‘liq

bo‘lgan. Quyida liberal til siyosatining mohiyati, bunday siyosat yuritishning sabab va oqibatlari yoritiladi.

Liberal til siyosati o‘tkazishni ijtimoiy-lisoniy sharoit talab qiladi. Ya’ni ijtimoiy hayotning o‘zgarishi bilan jamiyat boshqa iqtisodiy sharoitda yashashni o‘rganadi, natijada, til ham o‘zgaradi – nimadir yangiradi. Shu vaqtgacha qo‘llangan me’yorlar yoki til shakllari til egalari yoxud ijtimoiy institutlarning ehtiyojini qondiro olmay qoladi – ayrim til me’yorlari bunga imkon bermay qo‘yadi, shubois jamiyat uni rad qilib, yangilash yo‘lini tutadi. Bunday sharoitda davlat til amaliyotidagi ehtiyojini hisobga olib, mavjud me’yorlarni o‘zgartirish choralarini ko‘radi. Masalan, o‘zbek-lotin yozuvida chorak asrdan ziyod ish yuritish tajribasi alifboda *o‘, g‘, sh, ch* harflarini yozishdagi murakkabliklarni, raqamlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklarni ma’lum etdi. Shu bois Respublika ishchi komissiyasi tuzilib, alifbo takomillashtirildi. Hukumatning alifboni takomillashtirishga izn berishi, vakolatli tashkilotlarning buni qo‘llab-quvvatlashi liberal til siyosatidir. Jamiyatning ehtiyoji bilan hisoblashgan, pragmatik yo‘nalgan liberalizmni ma’qullash joiz, biroq alifboni takomillashtirishga qarshi chiqqanlar ham bo‘ldiki, bunda konservatizm bo‘y ko‘rsatdi.

Liberal til siyosati hukumat yoki siyosiy partiyalarning tilni qo‘llashni tartibga solishdan tiyilishi, davlatning til amaliyotiga minimal darajada aralashuvida namoyon bo‘ladi. Davlat tomonidan fuqarolarga ona tili yoki davlat tilini tanlash, o‘rganish va kundalik hayotda, ijtimoiy, madaniy, siyosiy faoliyatda erkin qo‘llash imkoniyati yaratiladi. Liberal til siyosati insonning shaxsiy huquqlarini hurmat qilish, tilni tanlash erkinligini konstitutsiyaviy huquq sifatida e’tirof etish, milliy-madaniy identitetini til orqali erkin ifodalash imkoniyatini berish demakdir. Shuningdek, ijtimoiy barqarorlik, etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va madaniy xilma-xillikni rivojlantirish hamdir. Xullas, liberal tutum lisoniy vaziyatni kuch bilan emas, huquq yordamida boshqarishga asoslanadi, til hayotini til amaliyotining o‘zi tartibga solishiga qo‘yib beriladi.

Adabiyotlarda liberal til siyosati sifatida AQSh, Angliya, Niderlandiya tajribasi ko‘rsatiladi. Bizning sotsiologiyatikaga oid tadqiqotlarni o‘rganishimiz natijasida hech bir davlatning avvalboshdan erkin liberal til siyosati yuritgani ma’lum bo‘lmadi, harholda mavjud til siyosati tajribalari bo‘yicha tahlillarimiz buni tasdiqlamadi. Xususan, Buyuk Britaniyada til siyosati hozir liberal deyilsa ham, bu davlatning XVIII – XIX asrlarda qattiq til siyosati yuritgani manbalardan ma’lum. Yoki AQShda bugun til amaliyotini nazorat qiladigan yoki tartibga soladigan davlat tashkiloti bo‘lmasa ham, o‘tmishda davlat darajasida ingliz tilidan boshqa tillarning qo‘llanishiga to‘sqinlik qilinganligi haqida fikrlar bor. Bizningcha, birinchidan, ingliz tilida tilning kuchiga kuch qo‘shadigan ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq jiddiy

muammo yo‘qligi va ilm-fani yangiliklari asosan ingliz tilida yaratilib, boshqa tillarga eksport qilinayotganligi, ikkinchidan, ingliz tilining global miqyos kasb etib bo‘lganligi va uni boshqa tillarning ta’siridan himoyalash lozim bo‘lmay qolganligi sababli ayni davlatlar til amaliyotida konservatizmga ehtiyoj sezmayapti. Qolaversa, ingliz tili global til sifatida amal qilib turishi uchun dunyo tillariga ochiq bo‘lishi – turli tillardan so‘z va atamalarni qabul qilishga majbur.

An’anaviy til shakllarini qo‘llash yuqori ijtimoiy toifaga mansublik va madaniy saviyaga egalik belgisi sifatida tushunilmay qo‘yilishi tilga munosabatni liberallashtiradi. Bunda umumfalsafiy *liberalizm* atamasidagi “jamiyatning tadrijiy rivojlanish yo‘lini e’tirof etish” qoidasi ustuvorlashib, tilni rasmiy qo‘llash bilan bog‘liq eksperimentlarni qo‘llab-quvvatlanadi. Jamiyatda xorijiy so‘z va atamalarni qabul qilish tabiiy va muqarrar jarayon deb bilinadi, tilning tashqaridan boyishiga qarshi choralar ko‘rilmaydi. Liberal tutumni ma’qullamaydiganlar chet tillardan so‘z olish tendensiyasini til sofligiga putur yetkazadigan jarayon hisoblasa, liberalizm tarafdorlari tilning so‘z o‘zlashtirib boyishini xalqaro integratsiyalashuv vositasi deb biladilar.

Fransiya, Islandiya, Turkiya kabi mamlakatlar til siyosatida leksikaning tashqi manba hisobiga boyishiga nisbatan konservativ munosabat kuchli, aksar davlatlarning til siyosatida liberal munosabat shakllangan, xorijiy so‘zlar (ayniqsa, inglizcha atamalar) milliy adabiy tillarga moneliksiz qabul qilinadi. Qisqasi, moslashuvchan yo‘l afzal ko‘riladiki, bu davlatning til globallashtirishiga ochiqligini bildiradi. Buyuk Britaniya va AQSh til globallashtirishiga ochiq davlatlardir. Masalan, “sushi”, emoji (yaponcha), “croissant” (fransuzcha), “kindergarten” (nemischa), “shampoo” (hindcha) kabi so‘zlar oson o‘zlashgan, Britaniya jamiyati va ta’lim tizimi tilning tabiiy rivojlanishiga yo‘l qo‘yadi<sup>1</sup>. Tarixan ham lotin, fransuz, nemis va boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirib rivojlanish tendensiyasi amal qilgan.

Mavridi kelganda shuni aytish lozimki, AQShda tilni tartibga soluvchi rasmiy tashkilot yo‘q va amerikacha ingliz tili britan ingliz tiliga qaraganda moslashuvchanroq. Ayni ikki omil Amerika ingliz tiliga xorijiy so‘z va atamalarni qabul qilishni osonlashtiradi, tezlashtiradi. Masalan, ispan tilidan aynan o‘zlashgan “taco”, “salsa”, “burrito” kabi so‘zlar adabiy til va ommaviy axborot vositalarida keng qo‘llanadi. AQShda XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida yapon mahsulotlarining ommalashishi natijasida ko‘plab yaponcha so‘z va atamalar to‘g‘ridan to‘g‘ri Amerika ingliz tiliga o‘tdi, ularning ba’zilarigina ingliz tovush tizimiga moslashtirilgan [Mair, 2024]. Hozirgi kunda yapon tilidan o‘zlashgan

<sup>1</sup>Oxford English Dictionary. <https://www.oed.com/?tl=true>; – P. 231; [https://ru.wikipedia.org/wiki/Английский\\_язык](https://ru.wikipedia.org/wiki/Английский_язык) (foydalanish vaqti: 14.07.2025)

“anime”, “manga”, “karaoke” so‘zlari kundalik nutq va adabiy tilning bir qismiga aylangan [Schultz, 2025].

Niderlandiyada ham tilni qat’iy tartibga soladigan muassasa yo‘q, leksikaning o‘z holicha rivojlanishiga qo‘yib beriladi. Yoshlar va ommaviy axborot vositalari inglizcha so‘zlarni faol qo‘llaydi, bu so‘zlar adabiy tilga ham kiradi. “Weekend”, “baby”, “manager” kabi inglizcha so‘zlar adabiy va kundalik nutqda keng tarqalgan [Иванова, 2021; 2022]. Xorijiy so‘z va atamalarga liberal yondashuvga tilni qat’iy nazorat qiluvchi tashkilotning yo‘qligidan tashqari Niderlandiyaning xalqaro savdo, texnologiya va madaniyat markazida joylashgani, bu madaniyatning boshqa madaniyatlarga ochiqligi, xalqaro muloqotda qulaylikka intilishi kabilar sabab bo‘ladi. Bir qarashda demokratikdek tuyulgan mazkur yo‘l milliy so‘zlarning anchamunchasini siqib chiqaradi, milliy-madaniy o‘zlikka putur yetkazadi.

Til siyosatida haddan ortiq liberallik noadabiy so‘z va iboralarning rasmiy nutqda qo‘llanishiga yo‘l ochadi. Masalan, AQSh, Kanadadagi ayrim siyosatchilar va jurnalistlar nutqida yoki hatto sud qarorlarida xalqqa yaqin ekanlikni bildirish uchun sleng va jargonlar ko‘p uchraydi. S.Po‘latova, N.Nurmuhammedovalarning qayd etishicha, mazkur davlatlar rahbarlari “folks”, “gonna”, “wanna” kabi norasmiy so‘zlardan foydalanadi [Pulatova, Nurmukhammedova, 2025: 269-274].

Ayrim davlatlar til siyosatida mo‘tadil, o‘rta yo‘lni tanlaydi. Masalan, Germaniya til siyosatida qisman puristik, qisman pragmatik yo‘l tutiladi. Bu inglizcha atamalarni adabiy tilga qabul qilishda sezilarli erkinlik mavjudligida, texnologiya va biznes yuritishda yaqqol ko‘rinadi. “Denglisch” (Deutsch + English) ataladigan nutq shakli ham bejiz shakllanmagan, unda inglizcha so‘zlar nemis tiliga asosan aynan, qisman moslashtirib qabul qilinadi. Bu hodisa so‘z (downloaden – yuklash, jobben – ishlamoq), ibora yoki jumla (Let’s treffen uns heute Abend! (Let’s (inglizcha) + treffen uns (nemischa) darajasida uchraydi. Reklama matnlari (Just be you!, Think big – shop smart!), biznes (Meeting, Brainstorming, Outsourcing, Feedback kabi so‘zlar), AT (Software installieren, einloggen, backup machen kabi aralash iboralar) sohalarida, yoshlar nutqida “Denglisch”dan faol foydalaniladi.

“Denglisch”ni ma’qullovchilar texnik-texnologik tushunchalarni aniq ifodalashi, xalqaro til sifatida ingliz tilining ta’siri muqarrarligini sabab qilib ko‘rsatadilar. “Denglisch” nemis tilini buzishi, sofligini yo‘qotishi, yoshi katta nemislar yoki ingliz tilini bilmaydiganlar uchun tushunarsizligi, aksar nemischa so‘zlarni tildan siqib chiqarayotganligi sababli uni ma’qullamaydiganlar, “Denglisch” nemis tilini mensimaslik oqibati deb biladiganlar ham ko‘p [Тиляходжаева, 2024: 140-143; Abubakirova, 2020: 40-42; Cantarini, 2023: 2-18].

Liberal til siyosati vakolatli tashkilotlar tomonidan til me’yorlarining erkinlashuvini salbiy tendensiya deb qabul qilinmay qo‘yishi sharoitida shakllanadi.

Jamiyatda ijtimoiy-madaniy turg‘unlik, iqtisodiy-siyosiy stagnatsiya yuz berishi sharoitida, siyosiy beqarorlik va ziddiyatlar avj olganda til ikkinchi darajali masalaga aylanadi, vakolatli tashkilotlarning e‘tibori real xavfni bartaraf qilishga qaratiladi. Masalan, Suriyada 2011-yildan boshlangan fuqarolar urushi, ijtimoiy-iqtisodiy resurslar taqchilligi sharoitida kurd va boshqa etnik ozchilik tillari o‘z holiga tashlab qo‘yildi. Endi tilning qaysi yashash shaklini birlamchi rivojlantirish belgilab olinishi kerak. L.Nikolskiy to‘g‘ri qayd qilganidek, dastlab “kundalik hayotda faol qo‘llanadigan, ya’ni ommaviy va barqaror ijtimoiy-professional vazifada amal qilayotgan til shaklini rivojlantirib olish lozim bo‘lar. Aksincha, cheklangan ijtimoiy guruhlar ishlatadigan, istiqboli noaniq til yashash shakllarini rivojlantirishga vaqti yetganda e‘tibor qaratilar” [Никольский, 1968: 116].

Xullas, liberal til siyosati – davlatning til hayotiga minimal aralashishi bilan belgilanadigan yo‘li va bunday munosabatning shakllanishi fuqarolarning shaxsiy huquqlariga daxl qilmaslik istagi bilan ham bog‘liq. Xorijiy so‘z va atamalarning qabul qilinishini xavf sifatida ko‘rmaslik, tilni rasmiy qo‘llash bilan bog‘liq tajribalarni qo‘llab-quvvatlash, xorijiy atamalar va grammatik konstruksiyalarni o‘zlashtirish til standartiga putur yetkazmaydi deb bilishdek harakatlar til liberalizmini namoyon etadi. Liberal til siyosatining tilni oldinga siljitish, tilning yangi ifoda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdek ijobiy tomonlari bor, buni inkor etib bo‘lmaydi, ammo til sofligini saqlash, xalq o‘rgangan an‘analardan chetga chiqish, tilda me‘yor tushunchasining muallaqlashishi kabi xavflar ham borki, ular til masalasini o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘ymaslik zarurligini ko‘rsatadi. Til liberalizmini lisoniy boshboshdoqlikka aylantirib yubormaslik madaniyatlararo chegaralar nisbiylashgan ayni zamonda har qachongidan dolzarb.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aubakirova A., Tusupova G., Ustelimova N. Экстралингвистические особенности применения Denglish в языке немецкой рекламы // Eurasian Union Scientists, 2020. №4.
2. Cantarini S. Anglicisms in German – An Overview with Reference to the Neologismenwörterbuch in the Online-Wortschatz-Information system. Neophilologica, 2023. T. 35.
3. Иванова Е.В. Языковая политика в Нидерландах // Скандинавская филология, 2021.
  1. Dutch Language and Its Openness to Loanwords // Journal of Germanic Linguistics, 2022.
  2. 4. Lewis M.W. Afghanistan’s Language Policies and the Cartographic Marginalization of Persian (Farsi) / <https://www.geocurrents.info/blog/2023/08/22/afghanistans-language-policies-and-the-cartographic-marginalization-of-persian-farsi/> (foydalanish vaqti: 15.07.25)
3. Mair V. Japanese borrowings and reborrowings / <https://languagelog.ldc.upenn.edu/nll/?p=63580>.
4. Назаров Қ. ва бошқалар. Фалсафа: қомусий луғат. (тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров) – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004.
5. Никольский Л.Б. Языковая политика как форма сознательного воздействия общества на языковое развитие // Язык и общество. – М.: Наука, 1968.

# „O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI“

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

6. Pulatova S., Nurmukhammedova N. Using jargons and slangs in formal speech process (on example program of tv, meeting) // Всемирный научный исследовательский журнал, 2025. №1.
7. Theodor A. Afghanistan: Taliban Forced Rift Between Country's Two Main Languages / <https://www.rferl.org/a/1098593.html> (foydalanish vaqti: 15.07.25)
8. Тиляходжаева Ф. Слияние английских слов с немецкими в современных немецкоязычных текстах // Eurasian Journal of Academic Research, 2024.
9. Shahab. The Taliban and the Language That Suffers in Its Rooted Origin Land / <https://8am.media/eng/the-taliban-and-the-language-that-suffers-in-its-rooted-origin-land/> (foydalanish vaqti: 15.07.2025)
10. Schultz J. The Impact of Japanese on the English Lexicon Since 1900 // 1624494001103016, 2017.